

Rahbarlar va yoshlar uchrashuvi bo'lib o'tdi

// 12 June 2026 yil


<https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/20260611-1>

11-iyun kuni Bo'stonliq tumanidagi Heaven's Garden konferensiyalar zalida **"Kimyo sanoati yosh mutaxassislari" forumi doirasida rahbarlar va yoshlar uchrashuvi** tashkil etildi.





Uchrashuvda «O'zkimyosanoat» AJ boshqaruvi raisi maslahatchilari Sanobar Abduraxmanova hamda Muxammadbobur Abdurazakov, Navoiyazot AJ boshqaruv raisi Farrux Samadov, Maxam-Chirchiq AJ boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari — ishlab chiqarish bo'yicha direktor Rixsibay Uzakov, "Ammofos-Maxam" AJ boshqaruv raisi o'rinbosari Bexzod Gafurov hamda tarmoq korxonalaridan tashrif buyurgan yoshlar va talabalar ishtirok etdi.



Ochiq muloqot tarzida o'tgan uchrashuvda yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning kasbiy rivojlanishi, innovatsion g'oyalarni ro'yobga chiqarish va kimyo sanoatining istiqboldagi rivojlanishida yosh mutaxassislarning o'rni haqida fikr almashildi.



Uchrashuvda Toshkent kimyo-texnologiya instituti talabalari ham faol ishtirok etib, o'zlarini qiziqtirgan savollarga mutaxassislardan javob oldilar hamda qimmatli tavsiyalarga ega bo'ldilar.